

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Shermuhammadov, B.Qurbonova	
Hamkorlikdagi faoliyat treningini o'tkazish usullari.....	9
T.Egamberdieva, N.Gafurova	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda gender tengligi masalalari	13
N.O'rinova	
Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyalari	17
I.Siddiqov	
Aralash ta'lim – bo'lajak tarixchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida	21
M.Barakayev, X.O'rinov	
Matematika o'qituvchisi tayyorlash metodik sistemasining nazariy jihatlari.....	26
X.Umarov	
O'quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni rivojlantirish tuzilmasi va komponentlari	31
N.Xodjibolayeva	
Talabalarda ekologik kompetentlikni shakllantirishda Abdurauf Fitratning ijtimoiy-ekologik qarashlarining ahamiyati	39
S.Uraimov	
Kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanganlik ko'rsatkichlarining pedagogik tahlili	44
D.Malikova	
Ta'lim makonida madaniy muhitning tarixiy omillari.....	48
A.G'ofurov	
Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish tizimi.....	51
I.Sharofutdinov	
Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish	59
J.Qurbonov	
Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual madaniyatni rivojlantirishning integrativ ta'lim texnologiyalari.....	65
M.G'ofurova	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida tadqiqot metodlarini qo'llashning samaralari	69
G.Maxsudova	
O'quvchilarda ekosavodxonlikni shakllantirishning rivojlantirishda milliy ma'naviy qadriyatlarining ahamiyati	74
V.G'aniyeva	
O'yinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va o'ziga xosligi	78
Sh.Karimova	
Talabalarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ishlarni tashkil etishning lokal-modulli texnologiyasi	82
F.Raximova	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bo'lajak tarbiyachilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish tizimini takomillashtirish muammolari	85
D.Rafikova, Z.Ibroximova	
Ta'limni modernizatsiyalash jarayonida smart texnologiyalardan foydalanishning istiqbollari va muammolari.....	88
U.Abduraximova	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish pedagogik-psixologik asoslari	92

HAMKORLIKDAGI FAOLIYAT TRENINGINI O'TKAZISH USULLARI

МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ СОВМЕСТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

METHODS OF TEACHING COOPERATIVE ACTIVITIES

Shermuhammadov Bahodirjon Shermuhammadovich¹,
Qurbonova Baxtixon Qo'chqarbayevna²

¹Shermuhammadov Bahodirjon Shermuhammadovich – Farg'ona davlat universiteti, Pedagogika fanlari doktori, professor

²Qurbonova Baxtixon Qo'chqarbayevna – Farg'ona davlat universiteti, Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalar bilan hamkorlikda o'zaro muloqot o'rnatish, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida ijtimoiy pedagogik xarakterga ega bo'lgan treninglardan samarali foydalanish usullari xususida fikr yuritilgan.

Аннотация

В данной статье рассмотрены способы эффективного использования тренингов социально-педагогического характера с целью установления взаимосвязи в сотрудничестве со студентами и формирования навыков их совместной работы.

Abstract

This article examines ways in which social and pedagogical trainings can be used effectively to establish a collaborative relationship with students and build their skills to work together.

Kalit so'zlar: hamkorlikdagi faoliyat, kommunikativ layoqat, intellektual salohiyat.

Ключевые слова: совместная деятельность, коммуникативные способности, интеллектуальный потенциал.

Key words: collaborative activities, communication abilities, intellectual capacity.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash dasturida davlatimiz ta'lim tizimining ochiq xarakterga ega ekanligi e'tirof etilgan. Ta'lim tizimi, ayniqsa o'quv jarayonining ochiqqligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim muassasalari uchun o'zaro hamkorlikka asoslangan pedagogik jarayonni tashkil etish va ommalashtirish o'quv jarayonida kafolatlangan natija olish imkonini beradi. Ta'lim sifatini oshirishda o'zaro hamkorlikka asoslangan ta'lim texnologiyalarini qo'llash ijobiy samara beradi. Bunda olinadigan natijani oldindan kafolatlash va tavsiflash imkoniyati vujudga keladi.

Kafolatlangan natijaga erishish uchun o'qituvchi hamda talabalar orasida hamkorlik muhitini vujudga keltiradigan texnologiyalarni aniqlash va o'quv jarayoniga tatbiq etish lozim. O'zlashtirilgan bilimlarni chuqurlashtirish natijasida talabalarda muayyan darajada amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilish mumkin. Pedagogik hamkorlikni vujudga keltiradigan texnologiyalarning asosiy negizini turli o'quv vaziyatlarida talabalarning birgalikda, jadal harakat qilishlari uchun qulay sharoit yaratish imkoniyati tashkil qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xorijiy ta'lim nazariyasi va amaliyotida hamkorlikda o'qitish ("cooperativ learning") an'anaviy ta'limning muqobili sifatida keng tadqiq etilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hamkorlik samaradorligi umumiy natija hisobiga ishtirokchilarning interfaolligi, o'zaro aloqadorligi va o'zaro mas'uliyati va uning takomillashuvini, guruh ishtirokchilarining konstruktiv o'zaro birgalikdagi harakatiga individual mas'uliyati va yo'nalganligini ta'minlaydi.

O'zbekistonlik olimlardan N.Azizxodjayeva[2], J.Yo'ldoshev[7], R.Safarova[11], B.Xodjayev[9], Sh.Abdullayeva[1], N.Dilova[3] singari olimlar tomonidan hamkorlik pedagogikasi, ta'lim oluvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish strategiyalari yoritib berilgan.

Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahlili (N.Dejnikova, I.Pervin[4], V.Dyachenko, D.Djonson, R.Djonson[5], R.Slavin[8], va boshqalar) shuni ko'rsatadiki, hamkorlik guruhiy va jamoaviy ish

shakllarini tashkil etishda subyektlarning o'zaro birgalikdagi faoliyatda qo'yilgan maqsadga samarali erishishini ta'minlaydi. Bunday samaradorlik natijasida hamkorlar o'zaro yordam, faol hamkorlik tamoyillari asosida o'quv-bilish faoliyatida o'zaro birgalikda harakatlanishadi. Shuning uchun hamkorlik o'zaro javobgarlik, o'rtoqlik, o'zaro yordam, o'zaro hurmat, o'zaro samimiyligni talab etadi. Faol hamkorlik natijasida ta'lim oluvchilarda ta'lim-tarbiya jarayonida ongli va faol ijtimoiy sheriklik, ijtimoiy-maishiy vazifalarni hal etish malakalari tarkib topadi.

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Hamkorlik pedagogikasi asosida talabalar bilan hamkorlikda o'zaro muloqot o'rnatish, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda tasniflash, tavsifiy, uzviy-komponent tahlil, appozitiv, qiyosiy, transformatsiya, statistik, germeneytik va semantik-tavsifiy metodlardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, talabalar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarning darajalari turlichadir. Ba'zi bir talabalar taqdim qilingan axborotlarni tez o'zlashtirsalar, boshqalari mazkur ma'lumotlarning mazmun-mohiyatini tushunib yetishlari uchun muayyan vaqt talab qilinadi. Bunday talabalar bilan o'quv materiallari ustida ko'proq ishlash lozim. Ayrim talabalar bilmaganlarini o'qituvchilari yoki guruhdoshlaridan so'rashga tortinadilar. Shu bilan bir qatorda, o'zlari tushunmagan o'quv materiallari ustida ishlash bunday talabalar uchun zerikarli va qiziqarsiz bo'lib tuyuladi. Bunday vaziyatda hamkorlikka, birgalikda o'ylashga undaydigan texnologiyalardan samarali foydalanish kerak. Bunda kichik guruhlarda ishlash metodidan foydalanish samaralidir. Har bir kichik guruhga o'qituvchi tomonidan alohida-alohida topshiriqlar beriladi. Guruh a'zolari mazkur topshiriq doirasida o'z vazifalarini bo'lib oladilar. Ularning o'z vazifalarini bajarishga mas'ulliklari o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi, ularning e'tiborlari o'quv topshirig'iga jalb qilinadi. Guruhda ishlash jarayonida har bir ta'lim oluvchi o'z oldiga qo'yilgan vazifani bajarish bilan chegaralanib qolmasdan, umumiy topshiriqni bajarishga ham safarbar etiladilar. Buning natijasida talabalar o'zlari bilmaganlarini bir-birlaridan o'rganadilar, o'zaro bahs-munozaraga kirishadilar va vazifalarni hamkorlikda bajarish ko'nikmalari shakllanib, ular orasida o'zaro do'stona munosabatlar, ham fikrlilik, umumiy qarashlar va yondashuvlar vujudga keladi. Talabalarning o'quv materiallarini astoydil o'rganishlari, tushunishlari, ular ustida o'ylashlari, mustaqil yechimlar topishlari uchun qulay didaktik vaziyat vujudga keltiriladi.

Talabalar taqdim etilgan axborotlarni qabul qilishlari, o'zlashtirishlari, yangi axborotlarni izlashlari, ulardan o'z o'rnida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishlari uchun o'qituvchi va guruhdoshlari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsata olishlari lozim. Talabalar kichik guruhlarda muvaffaqiyatli ishlashlari uchun o'zlari va guruhdoshlarining bilimlarini to'g'ri baholash ko'nikmasiga ham ega bo'lishlari kerak. Natijada talabalarning o'z ustlarida ishlashlari, mustaqil bilim olishlari uchun qulay vaziyat vujudga keladi. O'qituvchi har bir guruh a'zolari mehnatini alohida-alohida baholaydi. O'qituvchining guruh a'zolari mehnatiga bergan bahosi turlicha bo'lishi mumkin: ijobiy, salbiy yoki qoniqarli tarzda. Bu baho ayni vaqtda har bir talabaning mehnati samarasiga berilgan baho hamdir. Umumiy topshiriq doirasida har bir ta'lim oluvchi muayyan vazifani bajaradi. Shundan keyin guruh a'zolari o'z vazifalariga mos tarzda yakuniy topshiriqni ham bajaradilar. Bu jarayonda har bir ta'lim oluvchi faoliyatining natijasi obyektiv baholanadi. Bu baho guruh a'zolari faoliyatini rag'batlantiruvchi didaktik vosita hamdir. Kichik guruhlarda ishlash jarayonida guruh a'zolari har bir talabaning mehnatini aniq tasavvur qilishlari va uni qo'llab-quvvatlashlari muhimdir. Pedagogik hamkorlik jarayonida talabalarni faollashtirishga qaratilgan metodlar yordamida quyidagi vazifalarni bajarish mumkin: talabalarning hamkorlikda bajargan faoliyatiga tashqaridan baho berishga o'rgatish; talabalar guruhining har bir a'zosi muayyan shaxsga qanday munosabatda bo'lishini aniqlash; talabalar guruhining ayni bir ta'lim oluvchiga bo'lgan qiziqishini oshirish kabilar. Pedagogik hamkorlik jarayonida talabalarda xush kayfiyat, tabassum, rahmdillik, ko'tarinkilik, quvonch, do'stona munosabatlar, muloqotga kirishuvchalik, qiyin daqiqalarda bir-birlariga ko'maklashish, kechira olish, mas'uliyatlilik, haqgo'ylik, bag'rikenglik, toqatlilik kabilar kuzatiladi. Mashg'ulotlar yakunida talabalar bir-birlarini yaxshi bilganliklari, yaqindan do'stlashganliklari, o'zlari haqidagi ma'lumotlarga ham ega bo'lganliklari, yaxshi sifatlarini namoyon qilganliklari, atrofda gilarining o'zlariga bo'lgan munosabatlarini aniqlaganliklari, o'zlariga tashqaridan baho berish imkoniyatiga ega bo'lganliklari, ijobiy hamkorlik muhitiga kirishganliklari, o'zlari va guruhdoshlariga nisbatan ishonch hissini tuyganliklarini kuzatish mumkin.

PEDAGOGIKA

Pedagogik hamkorlik ko'pgina didaktik va psixologik imkoniyatlarga ega. Bu o'z navbatida, talabalarni har tomonlama rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir talabada o'z guruhining muvaffaqiyatidan quvonish, kamchiliklari uchun javobgarlik hissi qaror topadi. Hamkorlikda ishlash jarayonida olingan natijalar muntazam tarzda o'qituvchi tomonidan tahlil qilinishi lozim. O'zaro hamkorlik muhitini tashkil etishda "o'qituvchi – ta'lim oluvchi"ning hamjihatlikdagi faoliyatiga asoslaniladi. "O'qituvchi — ta'lim oluvchi" munosabatlaridagi izchil hamkorlik deyilganda bu ko'zga tutilgan faoliyatning borishi hamda o'rnatilgan natijalarining o'zaro to'kis birgalikdagi tahlili faoliyati, ma'naviy, milliy hayotda bir-biriga nisbatan samimiylik, qolaversa, o'zaro bir-birini mustahkam va to'laqonli tushunish sanaladi.

Hamkorlikdagi o'quv jarayonini tashkil etishda o'qituvchi quyidagilarga tayanishi lozim:

1. Guruhli ish usulidan foydalanish;
2. Hamkorlikdagi ish jarayonida talabalarning bir-birlariga pedagogik-psixologik jihatdan moslashishlariga erishish;
3. Har bir kichik guruhda kuchli, o'rtacha va past o'zlashtiruvchi talabalarning bo'lishini ta'minlash;
4. Guruhdagi o'quv faoliyati samaradorligini ta'minlash maqsadida a'zolari almashtirish imkoniyatiga ega bo'lish;
5. Guruhda umumiy o'quv topshirig'ining berilishini ta'minlash;
6. Topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalarning individual vazifalarini aniqlash;
7. Vazifalarni taqsimlashda talabalar fikriga tayanish, ya'ni ular bilan hamkorlik qilish;
8. Hamkorlikda bajarilgan topshiriqni umumiy tarzda baholash;
9. Guruh a'zolarining mehnatiga talabalarning o'zlari baho berishlariga erishish;
10. Guruhli ish natijalarini talabalarning o'zlari tahlil qilishlarini ta'minlash.

Talabalarga insonparvarlik asosida yondashish ular orasidagi ziddiyatlarning o'ziga xos jihatlarini tushunish va bartaraf etish imkonini beradi. Talabalar orasidagi ziddiyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularni bartaraf etish quyidagi omillar bilan bevosita bog'liqdir: talabalarning yosh xususiyatlari; hamkorlikdagi ta'lim jarayonini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari; talabalarning ziddiyatlarga munosabati, ularning o'ziga xos jihatlari va rivojlanishi haqidagi tasavvurlari; ziddiyatlar vujudga kelgan holatlarda talabalarning harakatlari kabilar. O'qituvchining faoliyati, birinchi navbatda, ziddiyatlarga ijobiy yechim topishga qaratilishi kerak. Bu, o'z navbatida, o'qituvchining pedagogik ziddiyatlarning vujudga kelishi, rivojlanishi va ularning yechimini topish haqidagi bilimlarni nechog'li chuqur egallaganligiga bog'liq. Ziddiyatli vaziyatlarda talabalarda o'zaro munosabatlarga kirishish va hamkorlik qilish tajribasining shakllanishida turli ichki qarama-qarshiliklarni birgalikda bartaraf etish muhim o'rin egallaydi. Bunday tajribaning shakllantirish uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Bu talabalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan vaziyatlarni o'z ichiga oladi. Har bir vaziyatda talabalarda bir qator sifat o'zgarishlari vujudga keladi. Vaziyatlar orasidagi izchillik talabalar orasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish imkoniyatini kengaytiradi. Bir vaziyatdan ikkinchisiga o'tish jarayonida talabalar oldiga qo'yiladigan vazifalar murakkablashadi. Bular o'z navbatida talabalarda shaxsiy sifatning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Talabalar orasida hamkorlikka asoslangan ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish uchun turli shakl va mazmunga ega bo'lgan, talabalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan vaziyatlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Muayyan vazifalar va ularni yechish usullari belgilab berilishi kerak. Shuning uchun ham har bir holat talabalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan vaziyat sifatida muayyan izchillikda loyihalashtiriladi. Buning natijasida aksariyat talabalarda muayyan shaxsiy sifatlar tarkib topadi. Buning uchun o'zaro aloqadorlik xarakteriga ega bo'lgan talabalarni rivojlantiruvchi vaziyatlarda kelishilganlik, mujassamlikni ta'minlashga e'tibor qaratiladi. O'qituvchi hamkorlikdagi pedagogik jarayonni loyihalashda me'yorlangan va izlanuvchilik xarakteriga ega bo'lgan bashorat metodidan foydalanishi lozim. Izlanuvchilik xarakteriga ega bo'lgan bashorat hamkorlikdagi o'quv jarayonining istiqboldagi holatini aniqlashga yo'naltiriladi. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonining rivojlanishi va unga tashqi sharoitlarning ko'rsatadigan ta'sirini hisobga olishi lozim. O'qituvchi o'zi bashorat qilgan natijaga erishish yo'llarini loyihalashtirar ekan, pedagogik vazifalarning samarali yechimini ta'minlovchi ilmiy farazga tayanadi. Bu jarayonni o'qituvchi fikran tajribadan o'tkazadi va qayta ishlaydi. O'qituvchi faoliyatidagi bashoratlash noyob metodlar yordamida qo'yilgan maqsadga erishish yo'llarini aniqlash imkonini beradi. O'qituvchi faoliyatining maqsadi kafolatlangan natijaga erishish yo'llari murakkab bo'lishidan qat'i nazar amalga oshirilmagan, biroq loyihalashtirilgan faoliyat modelidir. Mazkur loyihada hamkorlikdagi pedagogik

jarayon yoki uning tarkibiy qismlarining sifat hamda miqdor jihatdan o'zgarishi aniq aks ettiriladi. Hamkorlikdagi pedagogik jarayon loyihasi strategik, taktik hamda tezkor bashoratlashga asoslangan holda vujudga keladi. Pedagogik bashoratlash hamkorlikdagi o'quv jarayoni maqsadiga asoslangan holda amalga oshirilib, pedagogik maqsadlarni oydinlashtirish va ularni pedagogik vazifalarga ko'chirishga asoslanadi. Buning natijasida pedagogik vazifalar muayyan o'quv materialida o'z ifodasini topadi. Pedagogik vazifalarni o'quv materiallariga ko'chirishda talabalar jamoasining imkoniyatlari o'qituvchi tomonidan aniq hisobga olinishi lozim. Buni pedagogik tashxislash yordamida tekshirish talab etiladi. Ilmiy asoslangan bashoratlash natijasi sifatida pedagogik vazifalar o'qituvchi va talabalar hamkorlikdagi faoliyatining mazmunli, yo'nalishli hamda tezkor jihatlarini uyg'unlashtiradi. O'qituvchi pedagogik hamkorlik jarayonini loyihalashtirishda dastlab o'zi uchun pedagogik vazifalarni shakllantiradi. Shundan keyingina u talabalarga beriladigan topshiriqlarni tanlaydi va ularni mazkur topshiriqlarni bajarishga yo'naltirish usullarini belgilaydi. O'qituvchi tomonidan malakali tarzda amalga oshirilgan bashoratlash uning hamkorlikdagi o'quv jarayonini maqsadga muvofiq tarzda loyihalashtirishiga imkon beradi. Pedagogik loyihalash mazmunli, tashkiliy-metodik, moddiy-texnik, ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan pedagogik vazifalarni yaxlit tarzda yechishni nazarda tutgan holda amalga oshiriladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir ta'lim oluvchining tahsil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishiga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyushtirilishiga zamin tayyorlaydi. Hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini takomillashtirish mazmuni sinergetik yondashuvga asoslangan o'qituvchilarni hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash va kooperativ ta'limni tashkil etish yo'llarini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Hamkorlik pedagogika nazariyasiga oid ta'limning mazkur bo'g'inlarida foydalanishga yo'naltirilgan o'quv adabiyotlarini yaratish, yoshlarga olamni yaxlit tarzda tushunish va anglash uchun imkoniyat yaratish, ta'lim tizimining muayyan qismlarida hamkorlik tamoyilini joriy qilish, pedagogik hamkorlik metodidan ham foydalanish, ta'lim oluvchilar hamda o'qituvchilar orasida ishchan dialog muhitini vujudga keltirish, hamkorlik ta'lim jarayonining shaxs shakllanishiga yo'naltirilganligi ongli tarzda o'z metodikasi va ish uslubini yaratishga o'rgatish dolzarb masala sanaladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullaeva Sh.A. Hamkorlik pedagogikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2017. – 178 bet. – 52 b.
2. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000. Dilova N.G'. Boshlang'ich ta'limda o'zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)... diss. – Nukus, 2018. – 152 s.
3. Дежникова Н.С., Первин И.Б. Товарщеская взаимопомощь школьников. – М.: Педагогика, 1991. – 112 с.
4. Дьяченко, В.К. Сотрудничество в обучении: о коллективном способе обучения. – М.: Просвещение, 1991. – 192 с.
5. Johnson D.W., Johnson R.T. Cooperation and the use of technology. In J.M.Spector, M.D.Merrill, J. van Merriënboer, & M.Driscoll (Eds.), Handbook of research on educational communications and technology. – New York: Taylor & Francis, 2008. – P. 1017-1044.
6. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004. – 101 b.
7. Slavin R.E. Student teams and comparison among equals: Effects on academic performance and student attitudes. / R.E.Slavin. – Journal of Educational Psychology, vol. 70, 1978. – P. 532-538.
8. Xodjayev B.X. Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. –T., 2016. – 314 b.
9. Safarova R., Musayev U.Q., Musayev P. va boshq. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari. –T.: Fan, 2005. – 5 b.